

ALIFBE DARSLARINI O'TISHDA O'QUVCHILARNING O'QISH SIFATINI OSHIRISH

Mamatqulova Madina Abdusattor qizi

Farg'ona viloyati Buvayda tumani

12-umumi o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

ANNOTATSIYA Savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga o'rgatish juda muhim. So'roqlar yordamida o'qilganlarni bola qanday tushungani aniqlanadi, tekshiriladi. O'qishdan oldin o'tkazilgan tayyorlov suhbat ham, o'qilgan matn yuzasidan o'tkazilgan suhbat ham shu maqsadga - ongli o'qishga xizmat qiladi. Sharoitga qarab, bolalarga nimanidir o'qishni talab qiladigan muammoli holatni yaratish ham zarur. Bunday holat "Alifbe"dan yoki harf terish matosidan, o'qiladigan topishm oqdan foydalanib yoki muammoli savolni keltirib chiqaradigan taxminiy suhbat yordamida hosil qilinishi mumkin.

Kalit so'zlar: *ona tili, savod, savodxonlik, o'qish, muallim*

KIRISH

Ma'lumki, savod o'rgatish jarayonidagi o'qish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ulairning to'g'ri talaffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish, bilimini boyitish, tafakkurini shakllantirish, eshitish, qabul qilish sezgisini o'stirishda ham bu davr mas'uliyatliligi bilan alohida o'rinn tutadi. Tayyorgarlik davri o'qishga o'rgatish uchun zamin hozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgalar nutqini eshitish, diqqatni to'plash, til birliklarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap) farqlash, ajratish, ularning vazifalarini anglash kabi xususiyatlar shakllantiriladi. Bular o'quvchilarning o'qishni muvaffaqiyatli egallashlariga yordam beradi. O'qishga o'rgatish uchun, avvalo, o'quvchi tovush va harf bilan yaxshi tanishtirilishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI

Tovush va harf bilan tanishtirishda bo'g'indan tovushni ajratish tamoyiliga rioya qilinadi. H arf bilan tanishtirish bir necha xil yo'nalishda amalga oshirilishi mumkin:

1. Mazmunli rasm yuzasidan savol-javob usuli bilan bog'lanishli hikoya tuzdiriladi. Undan kerakli gap, so'ng kerakli so'z ajratib olinadi, so'ngra so'z ustida yuqoridagi kabi tahlil ishlari uyushtiriladi.

2. So'z asos qilinib, analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratib olinadi. Masalan: oy. O'qituvchi oy rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning nomini - so'zni aytadi. O'qituvchi o tovushini cho'zib (o-o-o-y) aytadi va qaysi tovushni cho'zib aytayotganini o'quvchilardan so'raydi. O'quvchilar o tovushini aytgach, uning xususiyatlari haqida savol-javob o'tkaziladi. O tovushli so'zlar o'ylab toptiriladi. Shundan so'ng o harfi kesma harfdan yoki rasmli alifboden ko'rsatiladi. Bunda o harfining shaklini esda olib qolishlariga alohida e'tibor qaratiladi.

3. O'rganilgan harflar ichiga bugun o'rganiladigan harf aralashtirib qo'yiladi, bolalar uning ichidan notanish harfni ajratadilar, so'ng o'qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadi. O'quvchilar tovushning xususiyatlarini aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan, rasmli alifboden ko'rsatadilar. Shu tariqa tovush-harf bilan tanishtirilgach, o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi. O'qishga o'rgatishda bo'g'in asos qilib olinadi. Buning uchun o'qituvchida bo'g'in jadvali bo'lisi lozim. Bo'g'in jadvali asosida o'qish namunasi ko'rsatiladi, ya'ni harflab emas, ichida, birinchi harfni ko'z bilan ko'rib, uning nomini dilda saqlab, ikkinchi harfni ko'rish va ikkalasini bog'lab, unlini mo'ljallab ulab aytish tushuntiriladi.

Bo'g'in o'qish o'qituvchining namunasi asosida doimiy ravishda har bir darsda izchil olib boriladi.

Bunda quyidagi kabi chizmalardan foydalanish mumkin:

Bunda "Alifbe" sahifalaridagi so'zlarni oldin bo'g'inga bo'lismi, so'ng o'qishni mashq qilish yaxshi samara beradi. O'qituvchining namunali o'qishidan so'ng birgalikda ovoz chiqarib o'qish, yakka-yakka o'qish, shivirlab o'qishdan foydalaniladi. Ayniqsa, sekin o'qiydigan o'quvchilar bo'lgan sinflarda xor bilan o'qitish o'qishni tezlashtirishga yordam beradi.

Sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikm alaridan kelib chiqib, matndagi so'zlarni xattaxtada bo'g'lnlarga bo'lib yozish, o'rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo'shimcha so'z birikmalari, gaplar tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalaniladi.

Ma'lumki, "Alifbe" sahifalarida bo'g'in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o'qituvchi har bir bo'g'in tuzilishining murakkabligiga qarab ish usullarini belgilab olishi zarur. Masalan, uch tovushdan tuzilgan, to'rt tovushdan tuzilgan bo'g'lnlarni o'qishga o'rgatish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda o-lov, Mart-поп tipidagi bo'g'lnlarda o-lo:v, Ma:n-no:n tarzidagi qo'shimcha chiziqdan, bodring, do'.tf tipidagi bo'g'lnlarda bo:d-ri:ng, to':r:t tarzidagi qo'shimcha chiziqlardan foydalaniladi. So'zlarni o'qishga o'rgatishda bo'lib o'qitishdan tashqari jadvallar ham yaxshi samara beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Umuman olganda, har bir o'qish darsida, albatta, bo'g'in tuzilishi murakkab bo'lgan so'zlarni o'qish mashqi o'tkazilishi lozim. Bu usul o'quvchilarda o'qish malakasining takomillashuviga yordam beradi. O'qishga o'rgatishda so'zlarni va gaplarni to'ldirib o'qish ko'nikmalarini hosil qilish o'quvchini gap tuzishga, tez fikrlashga yo'naltiradi. O'quvchi tushirib qoldirilgan harf va so'zni rasmga qarab topadi, uning gap mazmuniga mos yoki mos emasligiga e'tibor beradi, o'rtoqlariga nisbatan tez topib, o'qituvchining rahmatiga sazovor bo'lishga intiladi. "Alifbe" darsligidagi matnlarda turli tinish belgilari ishlatilgan. O'quvchilar shularga mos ohang tanlashni, to'xtam (pauza) qilish o'rınlarini belgilab olishi zarur. Burida ham o'qituvchining tushuntirishi (birinchi uchragan tinish belgini izohlashi) va ifodali o'qish ham katta ahamiyat kasb etadi. Ifodali o'qilgan matngina tushunarli bo'ladi. Savod o'rgatishning birinchi kunlaridanoq o'qish ongli bo'lishi, bolalarni ongli o'qishga o'rgatish juda muhim. So'roqlar yordamida o'qilganlarni bola qanday tushungani aniqlanadi, tekshiriladi. O'qishdan oldin o'tkazilgan tayyorlov suhbati ham, o'qilgan matn yuzasidan o'tkazilgan suhbat ham shu maqsadga - ongli o'qishga xizmat qiladi.

Sharoitga qarab, bolalarga nimanidir o'qishni talab qiladigan muammoli holatni yaratish ham zarur. Bunday holat "Alifbe"dan yoki harf terish m atosidan, o'qiladigan topishm oqdan foydalanib yoki muammoli savolni keltirib chiqaradigan taxminiy suhbat

yordamida hosil qilinishi mumkin. Masalan, Qishda qushlar qayerga uchib keladi? (harf terish matosida: Issiq o’Ikalarga uchib ketadi). Mana shu kabi tayyorlov mashg’ulotlari o’qishning yuqori darajada ongli bo’lishini ta’minlaydi. Ongli o’qishni ifodali o’qishdan ajratib bo’lmaydi. Ammo analitik o’qishning birinchi bosqichida ifodali o’qish mumkin emas, chunki bolalar so’zda urg’uli bo’g’inni ajrata olmaydilar, tugallangan intonatsiyani, so’roq ohangini, hatto, orfoepik to’g’ri o’qishni ham bilmaydilar. Shuning uchun analitik o’qish bosqichida so’zni yaxlit, orfoepik qayta o’qish tavsiya qilinadi. Bunday qayta o’qish to’g’ri intonatsiyaga, ifodalilikka rioya qilib o’qishga o’rgatibgina qolmay, o’qishning ongli bo’lishiga ham yordam beradi. Savod o’rgatishning birinchi darslaridayoq o’quvchilarga tabaqlashtirib (differensial) yondashish (bunda o’quvchilarnig o’qishga tayyorgarliklaridagi fikrlar hisobga olinadi) amalga oshiriladi. O’qishning onglilagini va ta’sirchanligini ta’minlash uchun matn mazmunini o’quvchilam ing ko’rgan-kechirganlari, taassurotlari bilan bog’lash lozim. Shunda o’quvchida o’qishga, o’rganishga qiziqish ortadi. Ongli o’zlashtirishni amalga oshirishda lug’at ustida ishlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. So’zlarnig ma’nosи ustida to’xtalish, birinchidan, fikmi oydinlashtirsa, ikkinchi tom ondan matnni tushunishga ham yordam beradi. She’r, tez aytish, topishm oq, qo’shiq, maqol, hikmatli so’zlardan o’qitish, yod oldirish ham o’quvchilarning o’qishga qiziqishini oshiradi, o’qish malakasini shakllantiradi, xotirasini mustahkamlaydi. Boshlang’ich sinflarda o’qish darslarining uchdan ikki qismi o’qishni mashq qilishga ajratilishi lozim.

XULOSA

Yangi bo‘g’in, so‘z tuzishda harf terish matosi, magnit doskasi, sirli mato kabilarning va yangi so‘zni xattaxtada va daftarda “yasash”ning ahamiyati juda katta. O’qish uchun xilma-xil bosma materiallardan qanchalik ko‘p bo‘lsa, ulardan turli xil mashqlar tuzishda foydalanilsa, o’qish shunchalik ongli, qiziqarli bo‘ladi, malaka puxta shakllantiriladi. Bola endigina o’qishni boshlagan davrda qatorni yo‘qotmasliklarini, shuningdek, so‘zdagi birorta harfni yoki so‘zni tushirib qoldirmaslik uchun xatcho‘pdan (o‘qiyotgan betni belgilab qo‘yish uchun kitob ichiga solib qo‘yiladigan qog‘oz yoki lentacha) foydalanishga o’rgatish juda muhimdir. O‘qilayotgan qatorni kuzatib borish ko‘nikmasi sinf o‘quvchilaridan o‘rtog‘ining xatosini to‘g’rilashni talab qilish yo‘li

bilan hosil qilinadi. O‘quvchilar bu talabni qiziqib bajaradilar, shu yo‘l bilan ularning o‘qishga e’tibori ortib boradi. Demak, o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatish, ularning o‘qish sur’atini oshirish, ifodali va ongli o‘qish elementlarini shakllantirish o‘quvchilarni o‘qishning keying bosqichiga muvaffaqiyatli tayyorlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. B. M a’qulova, D. Nasriddinova. Kitobim - oftobim (1-sinf dantashqari o‘qish kitobi). - T.: „0’qituvchi” N M IU, 2008.
2. Boshlang’ich mакtab darsliklarini yaratish mezonlari / Tuzuvchilar: Q. Abdullayeva, M. Ochilov, K. Nazarov, S. Fuzailov, N. Bikboyeva. -T.: 1994.
3. J. G’. Yo’ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. - T.: „O’qituvchi”, 2004.
4. Y. Abdullayev. Eski maktabda xat-savod o‘rgatish. - T.: „0’qituvchi”, 1960.
5. K. Qosimova. Boshlang’ich sinflarda imlosi qiyin so’zlarnio’rgatish. - T.: 1964.
6. K. Qosimova, S. Fuzailov, A. Ne’matova. Ona tili (2-sinf uchun darslik). - T.: Cho’lpon, 2005.
7. K. Qosimova, A. Ne’matova. 2-sinfda ona tili darslari. - T.: Cho’lpon, 2004